

“KELAJAK SOATI” —MASHG‘ULOT ISHLANMASI

(5-8 SINFLAR UCHUN)

1-mavzu: Yagona Vatan, yagona xalq bo‘lib, yangi hayot va kelajak yaratamiz!

Mashg‘ulot maqsadi

O‘quvchilarga O‘zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining ahamiyatini tushuntirish, ularda Vatanga sadoqat, tinchlik va birdamlikni qadrlash, o‘z xalqiga daxldorlik hissini shakllantirish hamda mustaqillik yaratib bergan imkoniyatlarni anglashga yordam berish va mashg‘ulot davomida o‘quvchilar o‘z hayoti, ta‘lim olishi, kasb tanlashi, orzu va maqsadlarini mustaqillik, tinchlik va hamjihatlik bilan bog‘lashga undaladi. Shuningdek, ularda mamlakat kelajagiga befarq bo‘lmaslik, jamiyat va Vatan ravnaqiga o‘z hissasini qo‘shish istagini shakllantirish ko‘zda tutiladi.

Kutilayotgan natija

Mashg‘ulot yakunida o‘quvchilar O‘zbekiston mustaqilligining inson hayotidagi ahamiyatini tushunadilar, mustaqillik, tinchlik va birdamlik tushunchalarining o‘zaro bog‘liqligini izohlay oladilar. Ular tinchlik va erkinlikning kundalik hayotimiz, ta‘lim olishimiz, kasb tanlashimiz va kelajakni rejalashtirishimiz uchun qanday imkoniyatlar yaratishini anglaydilar. O‘quvchilar o‘z fikrlarini erkin bayon qilish, guruhda hamkorlikda ishlash, turli vaziyatlarni tahlil qilish va ulardan xulosa chiqarish ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Mashg‘ulot yakunida o‘quvchilarda Vatanga hurmat, tinchlikni qadrlash, boshqalarga hurmat bilan munosabatda bo‘lish, bilim olish va o‘z kelajagi uchun mas‘uliyatni his qilish kabi ijobiy qadriyatlar mustahkamlanadi.

1-HAFTA “YAGONA VATAN-YAGONA XALQ BO‘LIB, YANGI HAYOT VA KELAJAK YARATAMIZ!” INTERAKTIV MASHG‘ULOT

Shior: Yagona Vatan, yagona xalq bo‘lib, yangi hayot va kelajak yaratamiz!

I. Texnologik xarita

Ko‘rsatkich	Mazmuni
Davomiyligi	40–45 daqiqa
Mashg‘ulot turi	Interaktiv tarbiyaviy mashg‘ulot
Asosiy maqsad	O‘quvchi mustaqillik, tinchlik va birdamlikni shunchaki ta‘riflab bermaydi — ularning qiymatini o‘zi his qiladi va kelajak uchun shaxsiy hissasini belgilaydi
Metodlar	Dramatik kirish “Uchta kalit” o‘yini, jim sahna (pantomima), klaster (“Mustaqillik daraxti”), kichik guruhlarda ishlash, esse yozma ish,
Jihozlar	Uchta qulf tasviri, aralash so‘zlar kartochkalari, doskaga chiziladigan katta daraxt, barg va kaft shaklidagi qog‘ozlar, ota-onalar uchun savolnoma varag‘i

II. Mashg‘ulotning borishi

Tashkiliy qism — 4 daqiqa

O‘qituvchi: Assalomu alaykum, aziz o‘quvchilar! Barchangizni yangi o‘quv yili boshlangani bilan chin qalbimdan tabriklayman. **Bilimlar kuni muborak bo‘lsin!**

Bugun biz yana birgalikda bilim olish, yangi narsalarni o‘rganish va o‘zimizni rivojlantirish yo‘lida yangi bosqichni boshlaymiz. Yangi o‘quv yili barchangizga omad, yaxshi natijalar va unutilmas taassurotlar olib kelsin!

Avvalo, kayfiyatimizni ko‘tarib olaylik. **Bugungi mashg‘ulotdan siz nimani kutaysiz?** Bir so‘z bilan ayting: *bilim, muvaffaqiyat, yangi do‘stlar, qiziqarli mashg‘ulot...*

(O'quvchilar javob beradilar.)

O'qituvchi: Qani aytinglarchi o'quvchilar kimlar mustaqillikka bag'ishlangan tantanali bayram dasturini ko'rdi? Xo'sh, mustaqillik qanday kun?

(O'qituvchi tomonidan davlatimiz rahbarining mustaqillik tabrigiga e'tibor qaratiladi. Tabrikda nomi tilga olingan yoshlar, sportchilar haqida qisqacha ma'lumot berilib, ular o'quvchilarga ibrat sifatida ko'rsatiladi. Va erishilgan yutuqlar, natijalar haqida ularning yosh xususiyatidan kelib chiqib tushuntiriladi.)

Mashg'ulotning noodatiy boshlanishi — 7 daqiqa

O'qituvchi: *E'tibor bergan bo'lsangiz, prezidentimiz bu yilgi mustaqilligimiz munosabati bilan yo'llagan tabriklarida “Yagona Vatan, yagona xalq bo'lib, yangi hayot va kelajak yaratamiz!” dedilar. Keling, endi ayni mana shu shiorga oid videorolikni birgalikda ko'rib chiqamiz. Ana undan so'ng mavzuda davom etamiz.*

Video “Yagona Vatan, yagona xalq bo'lib, yangi hayot va kelajak yaratamiz!” Al-Xorazmiy maktabi hovlisi. Hovliga O'zbekiston bayrog'ining matosi ilingan. Matoda oy va yulduzlar yo'q. Ushbu matoga turli millat o'quvchilari kelib o'zlarining ko'kragiga yopishtirilgan yulduzni (jami 12 ta) joylab chiqadilar. Oxirida o'qituvchi O'yni joylaydi. Keyin hamma birgalikda flakstokda hilpirab turgan bayroqqa qaraydi va ekranda “Yagona Vatan, yagona xalq bo'lib, yangi hayot va kelajak yaratamiz!” shiori paydo bo'ladi. • o'zbek • tojik • qozoq • qoraqalpoq • rus • qirg'iz • turkman • tatar • koreys • ukrain • ozar • belarus. Ushbu mazmundagi kontent o'quvchilar e'tiboriga havola qilinadi

Mana shu yerda o'quvchilarning erkin fikrlari tinglanadi.

O'qituvchi: *Xo'sh, kim aytadi rolikda nechta millat vakillari ishtirok etibdi? Yurtimizda nechta millat va elat vakillari istiqomat qiladi?*

O'quvchilar javob beradi. (130 dan ortiq.)

O'qituvchi: Barakalla! Yana kim aytadi, bu yulduzchalarning joylashuvi orqali biz nimani tushunamiz?

O'quvchilarning erkin fikrlari tinglanadi.

O'qituvchi: (7-8 sinflar uchun) Bolalar bilasizmi, keyingi yillarda dunyo hamjamiyati bilan barcha sohalarimiz yanada mustahkamlanmoqda. Xususan, ta'lim sohasida ham. Hozirgi aniq raqamlar juda ham qiziq. Yurtimizda tahsil olish uchun xorijdan kelayotgan talabalar haqidagi ma'lumotlar borasida nima bilasiz?

O'quvchilar javob berishadi.

O'qituvchi: Milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlariga ko'ra, 2026-yilning yanvar-iyun oylarida 21 042 nafar chet el fuqarolari o'qish maqsadida O'zbekistonga kelgan. Bu ko'rsatkich o'tgan yilning mos davri bilan solishtirilganda 11,5 ming nafarga yoki 2,2 barobarga oshgan. Bu ham mustaqilligimizning samarasi hisoblanadi.

Doskaga uchta katta qulf tasviri tushirilgan qog'ozlar joylashtiriladi:

- ✓ 1. MUSTAQILLIK
- ✓ 2. TINCHLIK
- ✓ 3. BIRDAMLIK

Har bir guruhga aralash holda quyidagi so'zlar tarqatiladi: tanlash, xavfsizlik, mas'uliyat, til, ilm, mehr, Vatan, hamjihatlik, imkoniyat, hurmat, mehnat, adolat, kelajak, oila, do'stlik.

O‘qituvchi: *Topshiriq: bu so‘zlarni uchta kalitga taqsimlang. Lekin har bir so‘zni bitta kalitgagina qo‘yish shart emas.*

Eng qiziq qismi shu yerda: o‘quvchilar “mas’uliyat” kabi so‘zlarni mustaqillikka ham, tinchlikka ham bog‘lashadi.

O‘qituvchi: Bolajonlar, yil davomida “Bolalar kontentini rivojlantirish markazi” tomonidan turli mavzulardagi qisqa filmlar va roliklar tayyorlanadi. Ular aynan sizlar uchun. Keling endi, ana shu kabi kontentlardan birini birgalikda ko‘rib chiqamiz.

“Bolalar kontentini rivojlantirish markazi” kontenti beriladi.

(Bayroq yoki ilm olish haqidagi kontent beriladi. Yuqoridagi kabi muloqot qilinadi.)

“Mustaqillik daraxti?” — 10 daqiqa

Doskaga katta daraxt chiziladi — “Mustaqillik daraxti”. O‘quvchilar guruh asosida birma-bir uning qismlariga ta’rif yozadilar; bunda har bir sinf o‘z dunyoqarashi, tasavvuri va birinchi mashg‘ulotdan olgan xulosalari asosida yondashadi. O‘qituvchi buni to‘ldirishga yordam beradi:

1. Ildizlari — Vatan tarixi;
2. Tanasi — Mustaqillik;
3. Shoxlari — ta’lim, ilm, til, madaniyat, sport, kasb, erkin fikr, texnologiya, orzu.

Shundan so‘ng o‘qituvchi har bir o‘quvchiga barg shaklidagi qog‘oz beradi. O‘quvchi unga “Mustaqillik menga _____ imkonini beradi” jumlasidagi bo‘sh joyni to‘ldiradi. Masalan:

“...o‘z kasbimni tanlash imkonini beradi.”

“...bilim olish imkonini beradi.”

“...orzu qilish imkonini beradi.”

Barglar daraxtga ilinadi va birgalikda tahlil qilinadi.

O‘qituvchi: O‘quvchilar navbatdagi videoroligimiz ham juda qiziq. Sababi, bugungi mavzuyimizni qahramonimizning bir kuni misolida yana ham oson tushunib olishingiz mumkin. Diqqat qiling va tengdoshingiz qanday muammolarga duch kelganini rolikdan keyin birgalikda tahlil qilamiz.

Ijtimoiy kontent namoyishi —10 daqiqa

O‘qituvchi: o‘quvchilar kontentni ko‘rib bo‘lgandan so‘ng, o‘qituvchi ushbu videorolikdan qanday xulosa olganligini so‘raydi. O‘quvchilar o‘z fikrlarini bildiradilar.

Masalan: O‘qituvchi o‘quvchilarga savol beradi: Xo‘sh, yuqoridagi videorolikdan kim nimani tushundi? Nega Jasur kun davomida qiynaldi? Bu vaziyatlarni siz o‘zingizda tasavvur qilib ko‘rdingizmi? O‘quvchilarning erkin muloqoti asosida birma-bir fikrlari tinglanadi. O‘zaro turli fikrlar tahlil qilinadi.

“Men kelajakka nima beraman?” - 2 daqiqa

- a. Har bir o‘quvchi qo‘lini qog‘ozga qo‘yib, kaft shaklini chizadi. Kaft ichiga bitta shaxsiy va’da yozadi: “Men kelajak uchun...”. Masalan:
- b. ko‘proq kitob o‘qiyman;
- c. boshqalarni hurmat qilaman;
- d. Vatanim uchun foydali kasb egallayman;
- e. tabiatni asrayman;
- f. yaxshi do‘st bo‘laman;

- g. bilim olaman;
- h. tinchlikni qadrlayman.

Barcha “qo‘llar” doskaga chiqarilib, “Bizning kelajakka qo‘ygan qo‘l izimiz” kompozitsiyasi hosil qilinadi.

O‘qituvchi: Bolajonlar biz yil davomida “Kelajak soati” mashg‘ulotlarida nimalar haqida gaplashishimiz haqida bilishni istaysizmi? Unda loyiha tashabbuskorlari tomonidan tayyorlangan anonsga diqqat qilamiz. Bizning mehmonlarimiz va mavzularimiz haqida bilib olishingiz juda ham muhim.

“Kelajak soati” anonsi beriladi. 3 daqiqa

Mashg‘ulotni yakunlash - 2 daqiqa

O‘qituvchi mashg‘ulot yakunida ota-onalar bilan ishlash uchun aniq savolnoma va vazifa beradi. Keyingi mashg‘ulot aynan ota-onalarning mavzuga yozma munosabati va o‘quvchilarning mashg‘ulot davomida olgan taassuroti asosida tashkil etiladi.

Uyga vazifa

Ota-onalarga (yoki uydagi kattalarga) quyidagi savollar o‘quvchilarning daftariga qayd ettiriladi. “Oilaviy suhbat varag‘i” ular yozma javob tayyorlaydilar:

- a) Mustaqillik bu nima?
- b) Siz uni qanday tasavvur qilasiz?
- c) Mashg‘ulot davomidagi ko‘rilgan kontentlardan olgan xulosalaringizni farzandingiz bilan muhokama qiling?
- d) **Metodik izoh:** Sentabr oyining 2-haftasidagi “Kelajak soati” mashg‘uloti mana shu ota-onalarga javoblarni tahlil qilish asosida tashkil etiladi — shu bois varaqlarni saqlab, o‘sha mashg‘ulotga olib kelish tayinlanadi.

O‘qituvchi: *Suhbat chog‘ida shoshilmang, diqqat bilan tinglang va eshitganlaringizni qisqa qilib yozib boring. Eng muhimi — bu vazifa imtihon emas, balki oila a‘zolaringiz bilan yaqinroq bo‘lish, ularning hikoyalarini bilish imkoniyati.*

O‘qituvchiga qo‘llanma

Oilaviy suhbat uchun tayanch savollar

1. Sizning yoshligingizda ta‘lim qanday bo‘lgan? Maktabingiz, kitoblaringiz haqida gapirib bera olasizmi?
2. Sizningcha mustaqillik yillarida hayotimizda eng katta deb hisoblagan o‘zgarish nima?
3. Bugungi yoshlarga nisbatan qanday imkoniyatlarga ega emas edingiz?
4. Vatan va mustaqillik haqida menga qanday nasihat berasiz?

“Avval va hozir” jadvali (oilaviy topshiriq varag‘ida to‘ldiriladi)

Soha	Avval (oilalarning a‘zosi yoshligida)	Hozir
Ta‘lim		
Texnologiya		
Turmush darajasi		
Erkinlik va imkoniyatlar		

